

**MARKO POLO ASARIDAGI HINDISTONDAGI AVLIYO FOMA
XRISTIANLARI**

Nozimakhon Agzamova

PhD student of the UNESCO

Department for Religious Studies,

International Islamic Academy of Uzbekistan

A. Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: nozimaagzamova033@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi Hindistondagi ilk xristian jamoalarining shakllanishi masalasi avliyo Foma xristianlari misolida tahlil qilinadi. Keraladagi suriyalik xristianlarning etnomadaniy xususiyatlari, ularning liturgik tili, mahalliy ijtimoiy muhit bilan munosabatlari va apostollik merosining jamoa identifikatsiyasida tutgan o'rnini yoritiladi. Muallif yozma va og'zaki manbalarga tayanib, Hindistonda xristianlikning qadimiy va apostollik kelib chiqishiga egaligi haqidagi ilmiy qarashlarni muhokama qiladi.*

Kalit so'zlar: *avliyo Foma, Hindistonda xristianlik, Malabar, suriyalik xristianlar, Nasraniylar, apostollik an'anasi, Fomaning faoliyati, Maylapur, Kerala.*

Xristianlik ta'limotiga ko'ra, Iso Masih osmonga ko'tarilganidan va Muqaddas Ruh havoriylarga tushganidan so'ng, muqaddas havoriy Foma Falastin, Mesopotamiya, Parfiya, Efiopiya va Hindistonda xushxabarni targ'ib qilgan hamda u yerda xristian cherkovlariga asos solgan. "Avval boshqa havoriylarga nisbatan iymonda zaifroq bo'lgan Foma, - deydi avliyo Ioann Zlatoust, - Xudoning inoyati bilan ularning barchasidan ham jasurroq va g'ayratliroq bo'lib yetishdi, shu darajaga yetdiki, o'z va'zi bilan deyarli butun yer yuzini kezib chiqdi va yovvoyi xalqlarga Xudo Kalomini e'lon qilishdan qo'rqmadi". Hindistondagi Malipur shahri hokimining o'g'li va rafiqasini xristianlikni qabul qilganliklari uchun havoriy

qamoqqa tashlanadi, qiynoqlarga duchor etiladi va oxir-oqibat besh nayza bilan teshib o'ldiriladi va o'sha shaharning o'zida dafn etiladi.

Havoriy Foma xristianlari (hind suriya xristianlari) "Martoma nasrani", "Suriyani nasranikal" yoki "Mappila xristianlar" deb ataladi. "Mar" va "nasrani" atamalari na malayalam tilidan, na boshqa dravid¹ tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ular suriya tiliga mansubdir. "Mar" – "muqaddas zot" ma'nosini anglatib, bu yerda muqaddas Fomani anglatadi, "Nasrani" esa "Nazariylikka ergashuvchi", ya'ni Iso Masihga ishonuvchi ma'nosida qo'llaniladi². Keraladagi ilk xristian jamoalarining liturgik tili suriya tili bo'lgan. Ular o'z kelib chiqishini I asrda havoriy Fomaning xushxabarni targ'ib qilish (yevangelizatsiya) faoliyatidan boshlab keladilar. Havoriy Foma xristianlari tarixan Sharqiy cherkov ierarxiyasiga kirgan, biroq hozirgi kunda ular turli sharqiy-katolik, sharqiy-pravoslav, protestant va mustaqil guruhlarga bo'lingan bo'lib, har biri o'zining alohida liturgiyasi va an'anasiga ega³.

Tarixan bu jamoa VIII asrda (milodiy 780–823 yillar) Patriarx Timofey I tomonidan Sharqiy cherkovning Hindiston viloyati sifatida tashkil etilgan, unga yepiskoplar va mahalliy sulolaviy arxidiakon rahbarlik qilgan. XIV asrda Sharqiy cherkov Yaqin Sharqda Amir Temur (Tamerlan) tomonidan olib borilgan ta'qiblar sabab inqirozga yuz tutdi.

XVI asrda portugallarning havoriy Foma xristianlarini o'zlarining Padroado tizimi orqali boshqariladigan katolik cherkovining Lotin cherkoviga qo'shish bo'yicha mustamlakachilik tashabbuslari jamoa ichida bir necha bo'linishlarning (sxizmalar) birinchisiga sabab bo'ldi. Natijada Putankur (yoki Putankuttukar - "yangi sadoqat") hamda Palayakur (yoki Pajayakur - "Eski sadoqat") fraksiyalari shakllandi⁴.

Palayakur tarkibiga hozirgi Siro-malabar cherkovi va Xaldey-suriya

¹ Dravid tillari- Janubiy Hindiston, Shri-Lanka va qo'shni hududlarda tarqalgan mustaqil tillar oilasidir.

² CONGREGATION FOR THE EASTERN CHURCHES, The Catholic East, Edward FARRUGIA et al. (eds.), Rome 2019. P.361.

³ *Фальбуш, Эрвин; Бромилли, Джеффри Уильям; Лохман, Ян Миллич* (2008). *Энциклопедия христианства*. Издательство Ут. Б. Эрдманс. С. 285.

⁴ *Перчел, Иштван* (сентябрь 2014 г.). «Гаршунни Малаялам: Свидетельство ранних этапов индийской христианской литературы». *Хьюго: Журнал сирийских исследований*. **17** (2): 291.

cherkovi kiradi. Katolik missionerlariga qarshilikni davom ettirgan Putankuttukar esa mustaqil Malankara cherkovini tuzdilar va Antioxiya Suriya pravoslav cherkovi bilan yangi birlikka kirdilar.

Trissurda joylashgan Xaldej-suriya cherkovi XVI asrgacha Hindistonda mavjud bo'lgan havoriy Foma xristianlari an'anaviy cherkovining davomchisidir. U Iroqda joylashgan Sharqiy Ossuriya cherkovining Hindiston arxiyepiskopligini tashkil etadi.

Sharqiy-katolik fraksiyaga Siro-malabar cherkovi hamda G'arbiy-suriya siro-malankar katolik cherkovi kiradi.

Sharqiy-pravoslav fraksiya tarkibiga avtosefal Malankar pravoslav suriya cherkovi va Malabar mustaqil suriya cherkovi, shuningdek Antioxiya patriarxi boshchiligidagi Suriya pravoslav cherkovining ajralmas qismi bo'lgan Yakobit suriya xristian cherkovi kiradi.

Sharqiy protestant yo'nalishlariga Mar Toma suriya cherkovi va Hindistondagi Muqaddas Foma yevangelik cherkovi kiradi⁵.

XX asrga kelib turli suriya xristianlari pyatidesyatnik va boshqa yevangelik denominatsiyalarga, jumladan "Kerala Birodarlari", "Hindiston pyatidesyatnik cherkovi", "Xudoning Assambleyalari" va boshqalarga qo'shildilar. Ular "muqaddas Foma pyatidesyatnik xristianlari" deb ataladi.

XIII asrda Hindistondagi xristian jamoalari haqida so'z yuritsak, Marko Poloning "Dunyo xilma-xilligi kitobi (Livres des merveilles du monde)" sayohatnomasida Hindiston haqidagi tavsif uchinchi kitobdan boshlanadi. Aynan shu kitobida u Hindistonning geografiyasi, xalqlari va urf-odatlarini haqida so'z yuritadi hamda uni "buyuk Hindiston", "kichik Hindiston" va boshqa hududlarga bo'lib tavsiflaydi.

Geograf asarning "Havoriy Foma jasadi dafn etilgan joy haqidagi mulohazalar va u yerda sodir bo'ladigan mo'jizalar to'g'risida" nomli XVIII bobida – "muqaddas Havoriy Fomaning tanasi Maabar deb ataladigan ushbu viloyatda, aholisi kam bo'lgan kichik bir shaharda dafn etilgan. Bu joyga savdogarlar kam

⁵ Южная Азия . Центр передовых исследований и коммуникаций в областях миссий. 1980. С. 114.

keladi, chunki u yerda tovar juda oz va u juda qiyin yetib boriladigan maskan. Ammo xristianlar va musulmonlar bu yerga tez-tez ziyorat maqsadida kelishadi. Musulmonlar ham bu Fomaga hurmat bilan munosabatda bo'lib, uni o'zlaridan bo'lgan, buyuk payg'ambar deb aytishadi va unga "Avarian⁶" degan unvonni berishadi. Bu joyga ziyoratga keladigan xristianlar muqaddas zot o'ldirilgan joydan bir oz tuproq olib, uni to'rt kunlik yoki uch kunlik isitma bilan og'rigan bemorga berishadi; Xudo va muqaddas Foma qudrati bilan bemor darhol sog'ayib ketadi. Aytib o'tish kerakki, bu tuproq qizil rangdadir" deydi. Havoriy Foma qabridan olingan tuproqni mo'jizaviy shifo maqsadida qo'llash haqida 1348–1349-yillar atrofida u yerda bo'lgan Ioann Marinolli ham yozib qoldirgan⁷.

"Bu yerda 1288-yili juda go'zal bir mo'jiza sodir bo'lgan, hozir men sizga shu haqda aytib beraman. O'sha o'lkaning bir baronida guruch deb ataladigan dondan juda katta zaxira bor edi. U shu guruchni cherkovga tegishli bo'lgan barcha uylarga to'ldirib, ularni har tomondan o'rab olgan edi. Cherkovni nazorat qilib turgan xristianlar bu holatdan juda g'amgin bo'lishdi, chunki u uylarni guruch bilan to'ldirib qo'ygan edi, ziyoratchilarning ham bosh qo'yadigan joyi qolmadi. Ular barondan donni olib chiqishni ko'p marta iltimos qilishdi, lekin u hech narsa qilmadi. Bir kecha muqaddas zot (havoriy Foma)ning o'zi qo'lida sanchqi bilan baronga zohir bo'lib, uning tomog'iga sanchqini tiqib dedi: "Agar sen uylarimni bo'shatmasang, ziyoratchilarimga joy qoldirmasang, dahshatli o'lim bilan o'lasan". Ertalab bo'lgach, u barcha uylarni guruchdan bo'shatishni buyurdi va muqaddas zot qo'lidan o'ziga nima bo'lganini hammaga aytib berdi. Xristianlar bu buyuk mo'jizadan juda quvonib, Xudo va muqaddas Fomaga shukronalar aytdilar. Bu yerda yana ko'plab buyuk mo'jizalar sodir bo'ladi: xususan, bemorlar yoki jismoniy nuqsoni bor insonlar, ayniqsa xristianlar, shifo topishadi⁸", deb keltiriladi.

⁶ "Avarian" unvoni, havoriy Fomaga musulmonlar tomonidan berilgan, arabcha "havariyun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "Iso Masihning havoriyisi" degan ma'noni anglatadi.

⁷ Medlycott, A. E. *India and the Apostle Thomas: An Inquiry with a Critical Analysis of the Acta Thomae*. New Jearsey: Gorgias Press, 2005. P. 374.

⁸ Marco Polo, *The Travels of Marco Polo: The Complete Yule-Cordier Edition: Including the Unabridged Third Edition (1903) of Henry Yule's Annotated Translation, as Revised by Henri Cordier, Together with Cordier's Later Volume of Notes and Addenda (1920)*, ed. Henry Yule and Henri Cordier (New York: Dover Publications, 1993). P.355.

Marko Polo havoriyning o'limi haqida – “ularning aytishicha, muqaddas zot o'z ibodatxonasidan tashqaridagi o'rmonda ibodat qilib turgan ekan. Uning atrofida ko'plab tovuslar bor edi, chunki bu mamlakatda tovuslar dunyoning boshqa joylariga qaraganda ko'proq uchraydi. O'sha yurtning butparastlaridan biri - men avval aytib o'tgan Govi urug'idan bo'lgan kishi kamon va o'q bilan tovus ovlash uchun chiqqan ekan. U muqaddas zotni ko'rmay, tovuslardan biriga o'q otgan, ammo o'q muqaddas zotning o'ng yoniga tegib, u yaradan vafot etgan. Bu joyga kelishidan oldin u Nubiyada bo'lib, u yerda ko'plab odamlarni Iso Masih diniga kiritgan ekan”, deydi⁹. Marko Polo uyiga qaytgan vaqtda, Xitoyga yuborilgan missioner Ioann Monte Korvino 13 oy davomida Maabarda bo'lgan va 1292–1293-yillarda u yerdan yozgan xatda havoriy Foma cherkovini tilga oladi, o'sha yerda u o'z sayohatlaridagi sherigi, Pistooyalik Nikolay dafn etilganligini qayd etadi¹⁰.

Uchinchi kitobning XXII bobida “Koilum qirolligi”da “Maabardan chiqib, siz Koylum qirolligiga yetasiz. Uning aholisi – butparastlar hamda xristianlar va yahudiylar ham bor. Mahalliyalar o'z tillari va qiroliga ega, va hech kimga soliq to'lamaydilar”¹¹, deb keltiriladi. O'rta asrlarda bu joy havoriy Foma xristianlari uchun asosiy markazlardan biri bo'lgan. Ushbu joy va Kayal hududi - havoriy Foma asos solgan yetti qadimgi cherkovdan ikkitasidir.

Xulosa qilib aytganda, Hindistondagi avliyo Foma xristianlari qadimiy ildizlarga ega. Ularning diniy an'analari va tashkiliy tuzilmasi mahalliy madaniyat bilan uyg'unlashgan holda shakllangan bo'lib, bu holat xristianlikning moslashuvchan va transmadaniy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

⁹ O'sha manba.

¹⁰ Cathay and the Way Thither, ed. Henry Yule, vol. III. P. 45.

¹¹ Marco Polo, The Travels of Marco Polo: The Complete Yule-Cordier Edition: Including the Unabridged Third Edition (1903) of Henry Yule's Annotated Translation, as Revised by Henri Cordier, Together with Cordier's Later Volume of Notes and Addenda (1920), ed. Henry Yule and Henri Cordier (New York: Dover Publications, 1993). P.378.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. CONGREGATION FOR THE EASTERN CHURCHES, The Catholic East, Edward FARRUGIA et al. (eds.), Rome 2019.
2. Фальбуш, Эрвин ; Бромилли, Джеффри Уильям ; Лохман, Ян Милич (2008). *Энциклопедия христианства* . Издательство Wm. B. Эрдманс.
3. Перчел, Иштван (сентябрь 2014 г.). «Гаршунни Малаялам: Свидетельство ранних этапов индийской христианской литературы» . *Хьюго: Журнал сирийских исследований* . 17 (2)
4. *Южная Азия. Центр передовых исследований и коммуникаций в областях миссий*. 1980.
5. Medlycott, A. E. India and the Apostle Thomas: An Inquiry with a Critical Analysis of the Acta Thomae. New Jearsey: Gorgias Press, 2005.
6. Marco Polo, The Travels of Marco Polo: The Complete Yule-Cordier Edition: Including the Unabridged Third Edition (1903) of Henry Yule's Annotated Translation, as Revised by Henri Cordier, Together with Cordier's Later Volume of Notes and Addenda (1920), ed. Henry Yule and Henri Cordier (New York: Dover Publications, 1993)
7. Cathay and the Way Thither, ed. Henry Yule, vol. III.